

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Маҳмудова Дилафруз Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH 61-69

Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажоновна Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIIY DAVLATLARNING O'RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Agzamходжаева Шахноза Саидматмабoвна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOİY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

<i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system)	416-428
<i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	429-438
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	439-445
<i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ	446-453
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	454-458
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	459-463
<i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	464-470
<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	471-477
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	478-482
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	483-486
<i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	487-492
<i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI	493-497
<i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	498-501
<i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	502-507
<i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Амонов Mirjon Namozovich</i> IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE]	604-616

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING
O'RNATISH 617-622

Atoyeva Gulshoda Rabimovna

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI 623-628

Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI 629-635

Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES 636-641

Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich
Termiz davlat universiteti,
Sport boshqaruvi kafedrası, o'qituvchisi.
E-mail: ustaevabdurazzoq@gmail.com

MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan hozirgi kunda milliy sport turi hisoblanmish kurashning funksiyalari va vositalari haqida fiklar yuritilgan. Kurashning millatimiz uchun o'rni va ahamiyati shuningdek, u bilan shug'ullangan sportchining yuqori natijalarga erishishi aytib o'tilgan. Milliy kurashdagi sport mashg'uloti vositalari yani tabiatning tabiiy kuchlari, gigiyenik omillar, jismoniy mashqlarning tasnifi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy kurash, funksiya, tamoyil, mashg'ulot, jismoniy yuklama, musobaqa, kun tartibi, takomillashtirish, tizim, tasnif, natija, me'yor.

Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich
Termiz State University
Teacher of the department of sports management

FUNCTIONS OF NATIONAL SPORT "KURASH" AND MEANS OF ACHIEVING THE GOAL

Abstract. In this article, the author discusses the functions and tools of wrestling, which is considered a national sport today. The role and importance of wrestling for our nation, as well as the achievement of high results by the athlete engaged in it, were mentioned. The classification of the means of sports training in national wrestling, the natural forces of nature, hygienic factors, and physical exercises has been revealed.

Key words: National wrestling, function, principle, training, physical load, competition, agenda, improvement, system, classification, result, standard.

Устаев Абдураззак Курбонович
Термезский государственный университет
Преподаватель кафедры спортивного менеджмента

ФУНКЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО СПОРТА «КУРАШ» И СРЕДСТВА ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛИ

Аннотация. В данной статье автор рассматривает функции и средства борьбы, которая сегодня считается национальным видом спорта. Были отмечены роль и значение борьбы для нашего народа, а также достижение высоких результатов занимающимися ею спортсменами. Выявлена классификация средств спортивной тренировки в национальной борьбе: естественных сил природы, гигиенических факторов и физических упражнений.

Ключевые слова: Национальная борьба, функция, принцип, тренировка, физическая нагрузка, соревнование, программа, совершенствование, система, классификация, результат, стандарт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N85>

Kirish. Zamonaviy pedagogikada o'qitish tamoyillari o'qituvchi faoliyati va o'quvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilab beradigan asosiy talablar hamda yo'naltiruvchi qoidalar sifatida tushuniladi. Amaliy pedagogik faoliyatda o'qitish tamoyillariga asoslanadi, ular o'qitish amaliyotini rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish uchun yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Milliy kurashda o'quv-mashg'ulot jarayoni jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari: tarbiyaviy xususiyati, har tomonlama rivojlantirish, sog'lomlashtirish va amaliy ahamiyatiga muvofiq holda olib boriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimdan O'zbekistonda kurash va belbog'li kurash turlariga qiziqish yuqori bo'lgan. To'ylarda, sayillarda va har hil bayramlarda mazkur kurash turlarisiz tadbirlar o'tmagan. Mustaqillik yillarida ananalar qayta tiklanib, hozirgi kunga kelib har bir viloyatda milliy kurash turi ham yaxshi rivojlangan. Milliy kurash turlaridan tashqari yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo kurashi va sambo kurashi yurtimizda keng tarqalgan va rivojlangan. Butun jahon nigohiga tushib, dovrug' va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o'ziga mahliyo etgan kurash ham jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. [1]

Tarixshunos, qadimshunos, va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurashimizning 2-3 ming yildan ziyodroq tarixga ega akanligini isbotlaydi. Surxon, Zarafshon vohalari hamda Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topimlar, asoriatlari, qoyalarga bitilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'liq shohidlik beradi.

Muhokama. Milliy kurashning jismoniy tarbiya va sport tizimidagi funksiyalari deganda unga xos bo'lgan insonga ta'sir o'tkazish va insoniy munosabatlarning obektiv xususiyatlari, shuningdek shaxs va jamiyatning ma'lum talablarini qanoatlantirish va rivojlantirish tushuniladi. Kurash sportining funksiyalarini, shartli ravishda, ixtisoslik va umumiy funksiyalarga bo'lish mumkin. Ixtisoslik funksiyalariga musobaqaviy – etalonli va evristik – yutuqlilik funksiyalari kiradi. Umumiy funksiyalarga, hozirgi paytda, ijtimoiy-jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan shaxsiy - yo'naltirilgan tarbiya, ta'lim va rivojlantirish funksiyalari; sog'lomlashtirish - rekreativ funksiyalar; emotsional - tomoshabinlik funksiyasi; ijtimoiy integratsiyalash va shaxsni ijtimoiylashtirish funksiyasi; kommunikativlik funksiyasi va iqtisodiy singari funksiyalar kiritiladi. [2]

Kurashning musobaqa–etalonlilik funksiyasi. Sport ixtisosligining bazasini, asosan, musobaqa faoliyati tashkil etadi. Mazkur faoliyatning mohiyati bellashuv jarayonida maksimal namoyon bo'ladigan va unifikatsiyalashtirilgan holda taqqoslanadigan hamda g'alabaga yoki yuksak tasnif, shaxsiy sport natijalariga yoki musobaqada ma'lum o'rinni egallashga yo'naltirilgan inson imkoniyatlarini obektiv baholashdan iborat. Sportda qayd etiladigan rekordlar va yutuqlar, tasnif va snif normalarni bajarish jamiyat tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanadi hamda individual va inson imkoniyatlarining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Kurashning evristik – yutuqlilik funksiyasi. Sport uchun insonni o'z imkoniyatlarini bilish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy izlanuvchan faoliyati xarakterli. Shu bilan bir qatorda inson doimo o'z imkoniyatlarini maksimal amalga oshirishning va ularni ko'paytirishning samarador usullarini izlab boradi. Mazkur funksiya yuksak yutuqlar sportida eng batafsil va to'liq ifodalangan, chunki ularga erishish yo'lida tayyorgarlik tizimini doimo takomillashtirib borish,

yangi trenirovka vositalarini va usullarini, eng murakkab texnika elementlarining va bellashuv olib borishda taktik yechimlarning yangi namunalarini izlab topish kerak. (L. P. Matveyev, 1991). [3]

Musobaqalarda o'z imkoniyatlarini to'liq safarbar qilish qobiliyatlarini takomillashtirish va har doim mahoratning yangidan – yangi darajalariga ko'tarilish uchun ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlarida ulardan eng samaorali foydalanish kerak. Shunday qilib, ulkan ijodiy laboratoriya singari sport insonni o'z imkoniyatlari cho'qqilariga yetaklaydi.

Ijtimoiy – jamoatchilik funksiyalariga, eng avvalo, shaxsan - yo'naltirilgan tarbiya, ta'lim va rivojlanish funksiyalari kiritiladi. Sport faqatgina jismoniy va sport tomonidan takomillashishga, balki axloqiy, estetik, intellektual va mehnat tarbiyasi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Kurashning sog'lomlashtirish–rekreativlik funksiyasi inson organizmining holatiga va funksional imkoniyatlariga sportni ijobiy ta'sirida namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa, bolalar va o'smirlar sportida yaqqol ifodalanadi. Ularning rivojlanayotgan va shakllanayotgan organizmi uchun sport mashg'ulotlarining samarali ta'siri bebahodir. Aynan mazkur yoshda salomatlik fundamentiga asos qo'yiladi, muntazam jismoniy mashqlar mashg'ulotlari malaka va ko'nikmalari singdiriladi, shaxsiy va jamoatchilik gigiyenasi tartiblari shakllantiriladi. Bir vaqtning o'zida sport ijobiy his – tuyg'ular manbai ham hisoblanadi, u bolalarning ruhiy holatini sayqallaydi, aqliy charchoqni bartaraf etish va «muskul quvonchi»ni anglash imkonini beradi. Ayniqsa, bolalardagi salbiy gipodinamiya hodisalarini bartaraf etish ishida uning roli juda ham ulkan.

Kurashning hissiyotli – tomoshalilik funksiyasi sport insonning jismoniy va ruhiy sifatlari hamnafasligida namoyon bo'ladigan estetik xossalarni olib kelishida va san'at bilan chegaradosh ekanligida ochiladi. Shu nuqtai nazardan, ayniqsa, sport va badiiy gimnastika, figurali uchish, suvga sakrash va shu singari murakkab koordinatsiyali sport turlari jozibalidir. Inson gavdasining go'zalligi, texnik murakkab va takomillashgan harakatlar, bayramona kayfiyat – bularning hammasi sportning haqiqiy ishqibozlarini o'ziga jalb etadi. Sportning tomosha sifatida mashhurligi uning emotsionalligi va ko'pgina insonlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlariga taalluqli bo'lgan qabul qilish ta'bining nozikligi, shuningdek deyarli har bir insonga tushunarli bo'lgan «sport tili»ning universalligi bilan xarakterlanadi.

Deyarli hamma uchun sport, emotsional, his – hayajonlarga to'la tomosha sifatida qiziqarlidir. Kommunikatsiyaning zamonaviy texnik vositalari, ayniqsa televizor sport tomoshabinlari safi har qachongidan ham kengayishiga xizmat qilmoqda va bu insoniyatning emotsional dunyosiga sportning ta'sirini kuchaytirdi.

Ishqibozlarsiz sport biron – bir umumahamiyatli ijtimoiy hodisa bo'lmay qolar edi. Sport arenarida bellashib turgan sportchilar bilan birga jfrayonni boshdan o'tkazib ishqibozlar o'zlarini ularning birontasi bilan tenglashtirib ko'radi va o'zlarini sport bellashuvlarida, xarakterlar kurashida ishtirok etib turgandek sezadilar. Shuningdek, sport mojarolarini emotsional – obrazli darajada yechishning ishtirokchisiga aylanib, taqlid qilish uchun yorqin misollar va o'z hayotiy pozitsiyalarida aniqlanishlari uchun sabablar topadilar. [4]

Kurashning ijtimoiy integratsiya va shaxsni ijtimoiylashtirish funksiyasi. Sport insonlarni ijtimoiy hayotga jalb qilishning, unga o'rganishning va shug'ullanuvchilarda ijtimoiy

munosabatlar tajribasini shakllantirishning eng kuchli omillaridan biri hisoblanadi. Shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonida uning muhim roli ana shunga asoslangan.

Ixtisoslashgan sport munosabatlari u yoki bu holatda sport doirasidan tashqariga chiqadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etiladi. Bunday munosabatlar to'plami sportni shaxsga ta'siri, uning sport sohasida ham, ancha kengroq masshtabda ham, ijtimoiy tajribasini o'rganish asosini tashkil etadi.

Ommaviy ijtimoiy oqim sifatida sport harakati hamda ijtimoiy integratsiya, ya'ni odamlarni o'zaro bir – birlariga yaqinlashtirish va ularni qiziqishlarining va faoliyatlarining umumiyliги asosida o'z ixtiyorlariga ko'ra guruhlariga, tashkilotlarga, uyushmalarga, klublarga birlashtirish omillaridan biri sifatida ancha katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sportning mashhurligi – bu xalqning, millatning, davlatning manfaatlari bilan bog'liq sport yutuqlarining tabiiy bahosidir va u ommaviy ongga ta'sirning eng qulay vositasi bo'lib qoladi. Hozirgi kunda jahonda bu vositadan tijorat maqsadlarida ham foydalanilmoqda..

Kurashning kommunikativlik funksiyasi. Insoniyat rivojlanishining hozirgi davrida jamiyatni insonparvarlashtirish sportni xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlarni o'zaro yaxshi tushunish va madaniy hamkorlik, yer yuzida tinchlikni mustahkamlash omili bo'lishini taqozo etmoqda.

Xalqaro sport aloqalari, bizning davrimizda, global o'lchamlargacha o'sganligiga hayratlanmasa ham bo'ladi. «Sport hamma uchun» va Olimpiada harakati singari sport harakati ko'rinishlari zamonamizning eng keng xalqaro oqimlaridan bo'lib qoldi.

Kurashning iqtisodiy funksiyasi. Sport juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu sportga sarflangan mablag'lar, eng avvalo, aholini salomatligi darajasini o'sishida, umumiy ishlash qobiliyatini ortishida, insonning umrini uzayishida yuz karra o'zini oqlashida ifodalanadi. Sport to'g'risidagi fanni, sportni moddiy – texnika bazasini rivojlanishi, kadrlar tayyorlash – bularning hammasi bolalar va o'smirlar sportini, ommaviy sportni va yuksak yutuqlar sportini rivojlanishiga xizmat qiladi. Sport tomoshalaridan va sport inshootlaridan foydalanish orqali olinadigan moliyaviy vositalar ham iqtisodiy ahamiyatga ega. Biroq, bu sportni rivojlantirish uchun davlat va jamoat tashkilotlari sarflaydigan mablag'ning juda ham ozgina qismini tashkil etadi, xolos. Shu nuqtai nazardan sportning roli beqiyos.

Milliy kurashdagi sport mashg'uloti vositalari bu – tabiatning tabiiy kuchlari, gigiyenik omillar, maxsus bilimlar va turli xildagi jismoniy mashqlar bo'lib, ular to'rtta guruhga bo'lingan: umumiy tayyorgarlik, yordamchi, maxsus tayyorgarlik va musobaqa. [5]

Umumiy tayyorgarlik mashqlariga sportchi organizmini har tomonlama funksional rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar kiradi. Ular tanlangan sport turi xususiyatlariga mos kelishi bilan birga, u bilan ma'lum bir qarama-qarshilikda turishi mumkin. Bunda faqat har tomonlama rivojlantirish vazifasi hal etiladi, xolos.

Milliy kurashda sport gimnastikasidagi mashqlar (buyum bilan va buyumsiz, sherik bilan va sheriksiz, bir joyda va harakatda bajariladigan qo'l, oyoqlarning turli harakatlari), yordamchi sport turlaridagi mashqlar (og'ir atletika va yengil atletika, sport o'yinlari, suzish, akrobatika va boshqalar).

Yordamchi mashqlar u yoki bu sport faoliyatida kelgusida takomillashish uchun poydevor yaratuvchi maxsus harakatlarni o'z ichiga oladi, mashqlarning bu guruhiga trenajerlar, maxsus moslamalarda, ya'ni gilam tashqarisida ishlash paytida kurashchining tezkor-kuch qobiliyatlarini oshirishga yordam beradigan vositalar kiradi. Shuningdek boshqa

sport turlaridan olingan va kurashchining aerob hamda anaerob imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan vositalar (kross yugurish, va boshqalar) kiradi.

Maxsus tayyorgarlik mashqlari yuqori malakali sportchilar mashg'uloti tizimida markaziy o'rinni egallaydi va musobaqa faoliyati elementlarini o'z ichiga oladigan vositalar doirasini, shuningdek shakli, tuzilmasi va organizm funksional tizimi faoliyatini namoyon qilish xususiyati hamda sifatiga ko'ra ularga yaqinlashtirilgan harakatlarni qamrab oladi.

Natija. Musobaqa mashqlari mavjud musobaqa qoidalariga muvofiq sport ixtisosligi vositasi hisoblangan harakatlar majmuasini bajarishni nazarda tutadi. Milliy kurashda ularga nazorat va musobaqa bellashuvlari kiradi. Nazorat bellashuvi musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan sharoitlarda raqiblarning o'zaro to'liq qarshilik ko'rsatishi bilan o'tkaziladi. Uning maqsadi – kurashchining mashqlanganlik darajasi, uning musobaqalarda ishtirok etishga bo'lgan tayyorgarligini belgilash, kurashchining u yoki bu texnik-taktik harakatlarni egallab olganlik darajasini aniqlashdir. Nazorat bellashuvi musobaqa qoidalariga mos bo'lgan formula bo'yicha o'tkaziladi, uni to'xtatish va qandaydir tushuntirishlar bilan birga olib borish mumkin emas. Xatolar bellashuv tugagandan so'ng tahlil qilinadi. Musobaqa bellashuvi musobaqa qoidalariga muvofiq holda o'tkaziladi. Uning maqsadi – o'z vazn toifasida eng kuchli kurashchini aniqlashdir. Musobaqa bellashuvida kurashchi tayyorgarligining hamma tomonlarini keyingi takomillashtirilishi amalga oshiriladi. Bu bellashuvlar o'zining ruhiy shiddatiga ko'ra kurashchi musobaqalarda o'tkazadigan bellashuvlarga yaqinlashtirilishi mumkin. [6]

Xulosa. Milliy kurashning o'ziga tortuvchi kuchi, jismoniy va taktik kuchlarni namoyon bo'lishiga yuksak talablar qo'yadi hamda insonning ma'naviy – ruhiy qirralari va sifatlarini shaxsan – yo'naltirilgan tarbiyasi uchun keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Kurash sportchining tarbiyaviy va yuksak natijalarga qaratilgan eng katta tizimli ishlab chiqilgan sportning muhim ahamiyatga ega qismidir. Shunday qilib, kurashning funktsiya va vositalari kurashchini oliy maqsad sari odimlashiga turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar//Литература/References:

1. Tastanov A.N. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik., 2015.
2. T.S.Achilov. Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi, – Toshkent: 2020.
3. Yusupov K, Kurash, Darslik. – Toshkent: 1999.
4. Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li. (2024). Methodological aspects of competent approach to developing the creativity of students in the future professional pedagogical hierarchy of physical culture education. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 24, 57–59.
5. Megnimurotovich, I. E., & Ismailovna, A. N. (2023). Content essentials of diagnostics and psychocorrection of interrelationships in cognitive processes. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 328-330.
6. Eshkobilov Elmurod. (2023). System of Development of Professional and Pedagogical Creativity of Future Physical Education Teachers on the Base of a Competent Approach. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 261–264.
7. Эшқобиллов, Э. (2024). Компетенциевый подход к развитию физической культуры и спорта на основе системного подхода к развитию профессиональной и педагогической креативности будущих учителей физической культуры и спорта. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари*, 3(4), 595–605.

- гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(1).
8. Abdukahharovich, S. H. (2022). The significance of wrestling sports for society and the history of its formation. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 10, 312-316.
 9. Sharipov, K. A. (2021). training future teachers of elementary classes in the process of students students practice. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*,(12), 1339-1343.
 10. Sharipov, K. (2023). The coordination of theoretical and practical training in achieving high results of an athlete. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(4 Part 4), 102-106.
 11. Urolovich, B. C. (2023). Pedagogical Principles of Using Activity and National Games in the Physical Education of Student Girls. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 575-579.
 12. Bobokulov, C. U. (2023). The meaning and importance of developing mental abilities of children of junior school age. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(6), 125-132.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).